Iroda Mirzaxonovna Aliyeva

Iroda Mirzaxonovna Aliyeva (17.12.1929 – 07.06.1989)

O‘zbekiston xalq artisti (1967). “A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san’ati” (O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti) institutining “Dramatik teatr va kino aktyorligi” yo‘nalishini tamomlagan (1951), Hamza (hozirgi O‘zbek Milliy Akademik drama) teatrida ishladi (1951–1972), 1972–1989-yillar «O‘zbekfilm» kinostudiyasida aktrisa. Nasiba («Og‘riqtishlar»), Muqaddas («Chin muhabbat»), Shirin («Bir sevgi afsonasi»), Guzin («Turkiya haqida hikoya»), Kamola (R. Tagorning «Halokat» romani asosida yaratilgan inssenirovka – «Gang daryosining qizi»), Maryam («Jazoir, mening vatanim»), Asal («Sarvqomat dilbarim»), Nazokat («Parvona») rollarida Aliyeva muvaffaqiyat qozondi va lirik rollar ijrochisi sifatida tanildi. Yuksak texnika, mukammal sahna nutqiga ega bo‘lgan Aliyeva qahramonlarining dunyoqarashi va ichki kechinmasini o‘ziga xos sharqona xususiyat, nazokat bilan ifodalashga erishgan.

Kinoaktyor teatr-studiyasida Nina (A. Kason, «Yetti faryod», 1973), Enaga (A. Korneychuk, «Platon Krechet», 1974) va boshqa rollarni ijro etdi. Kinoda: «Akmal, ajdaho va malika» (1980), «Akmalning yangi sarguzashtlari» (1983) filmlarida yalmog‘iz kampir obrazini yaratdi.